

I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT ISHLAB CHIQRISH


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021 yil yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot (YaHM) hajmi 21 045,2 mlrd. so'mni va o'sish sur'ati 2020 yilning shu davriga nisbatan 105,6 foizni, YaHMning deflyator indeksi 113,8 foizni tashkil qildi.

Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 5 307,4 ming so'mni va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 103,7 foizni tashkil etdi.

Viloyat yalpi hududiy mahsulotining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi

mlrd. so'm

	yanvar-iyun oylarida		O'sish sur'ati, % da
	2020 yil	2021 yil	
I. Yalpi hududiy mahsulot, jami	17 499,3	21 045,2	105,6
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	17 140,2	20 508,9	105,6
Mahsulotlarga sof soliqlar	359,1	536,3	107,6
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	17 140,2	20 508,9	105,6
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	6 338,5	7 490,5	100,2
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	3 794,9	4 562,5	108,8
Sanoat	2 647,6	3 185,0	108,1
Qurilish	1 147,3	1 377,5	110,5
Xizmatlar	7 006,8	8 455,9	108,8
Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 229,7	1 506,2	109,0
Tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari	1 108,8	1 416,6	114,6
Boshqa xizmatlar	4 668,3	5 533,1	107,3




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM tarkibi, % da

2020 vil




2021 yil



2021 yilning yanvar-iyun oylarida YaHMning o'tgan yilning shu davriga nisbatan 105,6 foizni tashkil qilishiga yalpi qo'shilgan qiymat hissasida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'ining 0,2 foizga, (YaHM tarkibidagi ulushi 36,5 %), sanoat 8,1 foizga (15,5 %), qurilish 10,5 foizga (6,7 %) xizmatlar 8,8 foizga (41,3 %) shundan savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar 9,0 foizni (7,3 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 14,6 foizga (6,9 %) va xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar 7,3 foizga (27,1 %) o'sishi hisobiga to'g'ri keldi.

YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish sur'atlari




Iqtisodiy faoliyat turlari

Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 97,5 foizni, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,5 foizni tashkil etdi.

Sanoat (qurilishni qo'shgan holda) tarmog'ining YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 0,1, xizmatlar sohasi esa 0,4 bandga ko'payib hisobot davrida mos ravishda 22,2 va 41,3 foizni tashkil qilgan bo'lsa, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'ining YaHM tarkibidagi ulushi 0,5 bandga kamayib 36,5 foiz bo'ldi.

Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo'yicha tarkibi, % da




YaHM ishlab chiqarish umumiy hajmining 70,4 foizi kichik tadbirkorlik (biznes) hissasiga to'g'ri keladi va bu ko'rsatkich 2020 yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 1,0 bandga kamaygan.

YaHMda kichik biznesning ulushi, jamiga nisbatan % da



YaHMning deflyator indeksi bo'yicha o'sish sur'atlari, % da



Iqtisodiy faoliyat turlari